

INSON va qonun

2025-YIL
29-IYUL
SESHANBA

№ 30
(1494)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!



www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

XABAR



“XALQLAR DO‘STLIGI” saroyida Toshkent
davlat yuridik universiteti bitiruvchilariga
diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

BITIRUVCHILARGA DIPLOM TOPSHIRILDI

Tadbirida adliya vaziri A. Toshqulov, Oliy sud raisi B. Islomov, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri o‘rinbosari R. Hakimov, Bosh prokuror o‘rinbosari S. Artikova, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A. Burxanov, Advokatlar palatasi raisi Sh. Sadikov, yuridik universitet rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi I. Rustambekov hamda universitet professor-o‘qituvchilari, bitiruvchi talabalar va ularning ota-onalari ishtirok etdi.

Marosimda adliya vaziri bitiruvchilarni mustaqil hayotning yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgani bilan samimiy tabriklab, ularga kelgusi faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlar tiladi.

Bugungi kunda universitetda 9 ming 128 nafar talaba tahsil olmoqda. 2024/2025-o‘quv yilida bakalavriat bosqichini 1 ming 315 nafar talaba muvaffaqiyatli tamomladi. Bitiruvchilarning 46 nafari imtiyozli diplomga ega bo‘ldi. 11 nafar bitiruvchi davlat mukofotlari va stipendiyalari sovrindori bo‘lsa, 100 nafardan ortig‘i xalqaro akademik almashinuv dasturlarida ishtirok etgan. Shuningdek, 100 nafarga yaqin bitiruvchi dunyoning TOP-300 talik universitetlariga o‘qishga qabul qilingan, 30 nafarga yaqini esa turli xalqaro tanlovlarda ishtirok etib, g‘oliblikni qo‘lga kiritgani tadbirida alohida e‘tirof etildi.

Joriy o‘quv yili davomida TDYU talabalari tarixiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi, universitet xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egalladi. Jumladan,



“TSUL Jessup” jamoasi uchinci bor “Philip C. Jessup International Law Moot Court Competition”ning O‘zbekiston milliy bosqichida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. San-Pauluda o‘tkazilgan nufuzli CPR Xalqaro mediatsiya musobaqasida TDYU jamoasi ilk ishtirokidayoq g‘olib bo‘ldi.

Diplom topshirish marosimi doirasida Prezidentimizning 2025-yil 14-fevraldagi “Oliy ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta‘minlash, yoshlarning bandligiga ko‘maklashish hamda oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarining mehnat bozoriga integratsiyasini kuchaytirish maqsadida “Karyera kuni” mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Yarmarkada 20 dan ortiq ish beruvchi tashkilotlar ishtirok etdi. Bitiruvchilar ish beruvchilar bilan bevosita muloqotda bo‘lib, mavjud bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish tartibi, ish sharoitlari va ijtimoiy kafolatlar haqida batafsil ma‘lumot olishdi.

Aziza ISMOILOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o‘quv-uslubiy boshqarmasi xodimi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

ADLIYA HAFTA ICHIDA

23-iyul

Adliya vazirligining navbatdagi kengaytirilgan hay‘at majlisi bo‘lib o‘tdi. Video-konferens-aloqa shaklida o‘tkazilgan yig‘ilishda 2025-yilning II choragi davomida adliya organlari va muassasalari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va kelgusidagi vazifalar muhokama qilindi.

24-iyul

Adliya vaziri A. Toshqulov Jizzax viloyati Arnasoy tumanida huquqiy axborotni tarqatish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida “Arnasoy tajribasi” bilan tanishdi. Adliya vaziri tomonidan taqdimotda belgilangan vazifalarni yanada takomillashtirish va huquqiy axborotning elektron maydonini yaratish borasida aniq tavsiyalar berib o‘tildi.

25-iyul

Adliya vaziri A. Toshqulov Jizzaxdagi xizmat safari davomida Baxmal tumanida amalga oshirilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdi.

26-iyul

Adliya vaziri o‘rinbosari Sh. Rabiyeov Qibray tumanidagi “Baytqo‘rg‘on” mahallasida “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Qoraqalpog‘istonda “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida “Adliya sayli” tadbiri o‘tkazildi. Nukus shahridagi “Qizilqum” mahallasida o‘tkazilgan tadbirida 20 dan ortiq fuqarolarning murojaatlari tinglandi. Davlat xizmatlari va FHDY sohasiga taalluqli bo‘lgan 8 ta murojaat joyida ijobiy hal etildi.


PROFESSIONAL MEDIATOR UCHUN TALABLAR BELGILANMAGAN

KO'PGINA xorijiy davlatlarda mediatsiya instituti sudlarda ko'riladigan ishlar sonini kamaytirishning usullaridan biri sifatida qo'llanilayotgani o'z samarasini bermoqda. Bunda nizolashuvchi taraflar professional mediator yordamida kelishuv yo'llarini izlash orqali o'zaro maqbul qaror qabul qilishga erishadi.

“Mediation” atamasi ingliz tilidan olingan bo'lib, “kelishish, tinchlikka erishish” degan ma'nolarni anglatadi. Mediatsiya ikki tarafni kelishuvga keltirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jinoiy jazolarni hal etishning sudgacha bo'lgan muqobil usulidir. Bunda mediator deb nom olgan betaraf uchinchi shaxs ikki tomonni bir joyga keltirib, ularni qoniqtiradigan kelishuv ustida ish olib boradi.

Ayrim xorijiy davlatlarda, xususan, Avstriya, Germaniya, Finlyandiyada mediatsiya tartiblari balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlovga oid alohida qonunlar bilan tartibga solinadi. Bunday holda, mediatsiya jarayoni sudya yoki prokuror tomonidan boshlanadi va sudga muqobil hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasida mediatorlik faoliyati professional va noprofessional asosda amalga oshiriladi. Rossiya qonunchiligida har ikki asosda faoliyatni amalga oshiradigan mediatorlar uchun ham yoshga doir talablar belgilangan. Jumladan, shaxs professional mediator bo'lishi uchun 25 yoshga, noprofessional mediatorlik faoliyatini amalga oshirishi uchun 18 yoshga to'lgan hamda to'liq muomala layoqatiga ega bo'lishi lozim.



Ispaniyada “Mediatsiya to'g'risida”gi qonun faqat fuqarolik va tijorat nizolarida (shu jumladan, oilaviy hamda kichik da'volar bo'yicha) hamda ma'muriy, mehnat, iste'molchilar sohasidagi nizolarda va jinoiy ishlarda qo'llaniladi.

Ispaniyada mediatsiya xizmatlari sifatini nazorat qilish bo'yicha davlat tizimi mavjud emas. Biroq, mediatorlar o'z kasbiy vazifalarini buzganlik uchun fuqarolik javobgarligini yuklaydi.

Yaponiyada “alternave dispute resolution” tizimining o'zi sudlov, ma'muriy va xususiy shakldagi ADR taomillariga tasniflanadi. Ushbu tasniflanish ADRni amalga oshiruvchi tashkilotlarga qarab amalga oshirilgan.

Yaponiyada mediatsiya (assen, mediation), hakamlik sudlari (chusay, arbitration), yarashtiruv (choutey, conciliation) institutlari mavjud. ADR tizimidagi mediatsiya instituti alohida ajralib turadi. Yaponiyada mediatsiya instituti ADR tizimida eng samarali va keng tarqalgan institut sanaladi. Mediatsiyada ko'rilgan ishlarning deyarli 55 foizi muvaffaqiyatli hal qilingan.

Qozog'istonda mediatorlik faoliyati Hukumat tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan mediatorlar tayyorlash dasturi bo'yicha o'qishni tugatganini tasdiqlovchi hujjati (sertifikati) bo'lgan va professional mediatorlar reyestrda mavjud shaxslar tomonidagina amalga oshiriladi. Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga asosan professional asosdagi mediator 25 yoshga to'lgan bo'lishi kerak. Shuningdek, professional asosdagi mediator faoliyatini iste'fodagi sudyalarda ham amalga oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, noprofessional mediatorga qo'yilgan talablardan biri shuki, 40 yoshga to'lgan shaxslar va sudyalarda mediatsiya protseduralarini o'tkazishi mumkin.

Taklif

O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida professional mediator qaysi mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lishi kerakligi, ularning malakasini muntazam oshirib borish bo'yicha talablar belgilanmagan.

Mediatsiya institutini takomillashtirish va mediatorlarga qo'yiladigan talablar bo'yicha xorijiy

mamlakatlarning tajribasidan kelib chiqib, quyidagilar taklif qilinadi. “Mediatsiya to'g'risida”gi qonunning 18-moddasida davlat organi ishtirokida nizo kelib chiqqan taqdirda, davlat organi mediatsiyani qo'llash bo'yicha choralar ko'rishi kerakligi belgilangan. Shu sababli, davlat organi xizmatchilarini mediatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha o'qitish ishlarini olib borish lozim. Xorijiy davlatlarda, xususan, Singapur, Xitoy, Gruziya va Qozog'istonda ba'zi davlat organlarida mediator shtati joriy qilinishi nizolarning sezilarli darajada kamayishiga olib kelganini ko'rishimiz mumkin.

Mediatorlarni o'qitishda belgilangan soatlarning 20-25 foizini mediatsiya jarayonini bajarish bo'yicha amaliyotni o'tashga qaratish zarur.

Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan dasturga muvofiq, har qanday mediatsiya markazida professional va noprofessional mediatorlarni o'qitish va sertifikat berish mumkinligini belgilash lozim.

Xorijiy davlatlarning mediatsiya sohasidagi qonunchiligida professional va noprofessional asosda faoliyat yuritadigan mediatorlarning funksiyalari bir-biridan ajratilgani sababli mamlakatimiz qonunchiligida ham mediatsiya sohasida ushbu amaliyotni joriy qilish kerak.

Shuningdek, mediatsiya sohasida noprofessional asosda faoliyat yuritadigan mediatorga qo'yiladigan talablarni qisqartirish zarur. Noprofessional mediator faoliyatini qonunchilikdan chiqarish va uning o'rniga “Mediatsiya sohasidagi mutaxassis” tushunchasini kiritish taklif etiladi.

Otabek TOSHEV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti o'qituvchisi

KORRUPSIYA IJTIMOY TENGSIZLIKNI YUZAGA KELTIRADI

MAMLAKATIMIZDA demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati qurishning umumiy strategiyasini amalga oshirish doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh qilish yuzasidan tizimli chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ammo shunga qaramay, davlat va jamiyat boshqaruvini yanada demokratlashtirish, modernizatsiya qilishda bir qancha jiddiy to'siqlarga duch kelinmoqda. Shunday to'siqlardan biri korruptsiyadir.

Davlat xizmatchilarida korruptsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish davlatning korruptsiyaga qarshi kurashish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki davlat xizmatchilarida ushbu madaniyatni shakllantirmasdan, samarali natijaga erishish imkonsiz.

O'zbekiston Respublikasining “Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonunida bu illatga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratilgan. Qonunning 19-moddasiga ko'ra, davlat organlarining va o'zga tashkilotlarning mansabdor shaxslari hamda boshqa xodimlari qonunchilikka rioya etishi, o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarini beg'arazlik bilan, xolisona, vijdonon, odob-axloq qoidalariga rioya etgan holda bajarishi hamda korruptsiyaga oid biror-bir huquqbuzarlikni sodir etishdan yoki bunday huquqbuzarliklarni sodir etish uchun shart-sharoitlar

yaratadigan boshqa har qanday harakatlardan o'zini tiyishi shart, deb belgilab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, korruptsiya nafaqat huquqiy tizimga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham jiddiy tahdid soladi. Unga qarshi kurashish har bir fuqaroning, ayniqsa, davlat xizmatchilarining burchi bo'lib, bu yo'lda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonunlarga so'zsiz rioya qilish va halollik tamoyillariga amal qilish eng muhim vositalardan hisoblanadi.

To'lqin TO'XTASINOV,
huquqshunos

E'LONLAR

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2025-yilning 15-iyul kuni Toshev Furkat Xalilovichga 2022-yil 17-yanvarda berilgan L-70664484-sonli reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi tugatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2025-yilning 15-iyul kuni “YURIDIK MASTER” advokatlik byurosi advokati Muminov Shuxrat Yusupovichga boshqarma tomonidan 2024-yil 16-sentabrda berilgan L-70665923 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Qashqadaryo viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2025-yilning 15-iyul kuni Raxmonov Sanjar Ergashovichga 2019-yil 22-avgustda berilgan KS-000202-sonli reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi tugatildi.

O'zbekiston Respublikasi “Notariat to'g'risida”gi qonunning 15²-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 25-iyuldagi 144-um-sonli buyrug'iga asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius R. Kuchkarovga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.